

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

5-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

## Aniq va tabiiy fanlar

## FIZIKA–TEXNIKA

**O‘.B.O‘ljayev, K. Mehmonov, I.D.Yadgarov, U.B.Xalilov**

Vodorod adsorbsiyasida grafendagi nuqsonlarning roli ..... 6

**A.Sh.Raximov**

Avtomobil dvigatellarining asosiy turlari va ish sikli..... 13

**Sh.A.Muminova, I.D. Yadgarov, O‘.B. O‘ljayev**

Azot atomlarining turli xil haroratdagi uglerodli nanotrubkalarga ta’siri ..... 22

## KIMYO

**I.R.Asqarov, M.A.Axmadaliev, N.M.Yakubova**

Furfuralning xalq iqtisodiyotidagi ahamiyati ..... 28

**S.A.Mamatqulova, I.R.Asqarov**Oddiy arpabodiyon (*Pimpinella anisum L.*) tarkibidagi biologik faol moddalarning antioksidantlik faolligini aniqlash..... 33**X.V.Qoraboyev, N.Sh.Azimov***Indigofera tinctoria* Linn o’simligi tarkibidagi umumiyoq qosil miqdorini o’rganish ..... 39**J.B.Mavlonov, Sh.N.Turemuratov, B.Ch.Nurimbetov, E.A.Eseyova**

Jamansay koni dolomitini o’rganish..... 45

**A.A.Xamzaxo‘jayev, M.I.Payg‘amova, G‘.M.Ochilov, R.A.Payg‘amov**

Ikkilamchi xomashyolar asosida uglerodli adsorbentlar olish va ularning fizik-kimyoviy xossalari o’rganish ..... 50

**X.V.Isroilova, B.Y.Abdug‘aniyev, A.B.Perdebayev**

Tashqi iqtisodiy faoliyatda polimerlarning nazariy va huquqiy jihatlari ..... 54

## BIOLOGIYA

**I.I.Zokirov**Sabzavot–poliz agrobiotsenozi larida tasodifiy uchrovchi adventivlar  
(Markaziy Farg’ona hududi misolida) ..... 60**M.R.Shermatov***Mythimna unipunctana*ning rivojlanishi hamda morfologik xususiyatlari ozuqa o’simligining ta’siri ..... 64**V.Maxmudov, J.O.Mamarasulov**

Farg’ona vodiysi florasida burchoqdoshlar (Fabaceae) oilasiga mansub endem turlarni muhofazasi ..... 74

**G.M.Zokirova**Farg’ona vodiysida ilk marta qayd etilgan *Pineus strobi* hartig, 1839 (Hemiptera, Adelgidae)  
turining bioekologiyasi ..... 77**A.E.To‘Iqinov**

Plankton organizmlarga xos xususiyatlar tahlili ..... 80

**Y.Qayumova, Ch.Abduqaxhorova**Iskandariya (*iskandaria prokofiev*, 2009) urug’i turlarining Farg’ona vodiysi chuchuk suv havzalari bo‘ylab tarqalishi ..... 83

## GEOGRAFIYA

**T.J.Jumayev, Sh.B.Qurbanov, E.D.Hamdamov**

O‘zbekiston tog‘li hududlarida rekreatsiyani rivojlantirish va hududiy tashkil etishning ba’zi masalalari ..... 87

**O.I.Abdug‘aniyev, E.G.Mahkamov, H.R.Abdullayeva**

Turistik-rekreatsion tizimlarni shakllantirishda mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlarini baholash ..... 94

**SABZAVOT-POLIZ AGROBIOTSENOZLARIDA TASODIFIY UCHROVCHI  
ADVENTIVLAR (MARKAZIY FARG'ONA HUDUDI MISOLIDA)**

**СЛУЧАЙНО ВСТРЕЧЕННЫЕ АДВЕНТИВЫ В РАСТИТЕЛЬНО-ПОЛЕВЫХ  
АГРОБИОЦЕНОЗАХ (НА ПРИМЕРЕ ЦЕНТРАЛЬНО-ФЕРГАНСКОЙ ОБЛАСТИ)**

**ACCIDENTALLY ENCOUNTERED ADVENTIVES IN PLANT-FIELD AGROBIOCENOSSES  
(USING THE EXAMPLE OF THE CENTRAL FERGANA REGION)**

**<sup>1</sup>Zokirov Islomjon Ilhomjonovich**

<sup>1</sup>Farg'ona davlat universiteti zoologiya va umumiyligi biologiya kafedrasini dotsenti, biologiya fanlari doktori

**Annotatsiya**

*Maqolada Markaziy Farg'ona hududi sabzavot-poliz ekinlarida tasodifiy uchrovchi adventiv turlar haqida ma'lumotlar keltirilgan. Markaziy Farg'ona mintaqasida tasodifiy adventivlar sifatida Acrotylus insubricus insubricus, Heteracris adpersa, Tetrix bolivari, Aphis frangulae beccabunga, Forda marginata, Trifidaphis phaseoli, Eurydema oleracea, Anomala errans va Lacanobia oleracea turlari qayd etilgan.*

**Аннотация**

*В статье представлены сведения об адвентивных видах, случайно встречающихся в овощных культурах Центральной Ферганы. В качестве случайных адвентивов в Центральной Фергане отмечены виды Acrotylus insubricus insubricus, Heteracris adpersa, Tetrix bolivari, Aphis frangulae beccabunga, Forda Marginata, Trifidaphis Phaseoli, Eurydema oleracea, Anomala errans и Lacanobia oleracea.*

**Abstract**

*The article presents information about adventitious species randomly occurring in vegetable crops of Central Fergana. The species Acrotylus insubricus insubricus, Heteracris adpersa, Tetrix bolivari, Aphis frangulae beccabunga, Forda Marginata, Trifidaphis Phaseoli, Eurydema oleracea, Anomala errans and Lacanobia oleracea were noted as accidental Adventists in Central Fergana.*

**Kalit so'zlar:** Sabzavot-poliz, tasodifiy, adventiv, ekologiya, hasharot, tur, Markaziy Farg'ona.

**Ключевые слова:** Овощебахчевые, случайные, адвентивное, экология, насекомые, виды, Центральная Фергана.

**Key words:** Vegetable-police, casual, adventive, ecology, insect, species, Central Ferghana.

**KIRISH**

Markaziy Farg'ona sabzavot-poliz agrobiotsenozlari entomofaunasida 18 turga mansub adventivlar qayd etilgan bo'lib, ulardan 6 turi xavfli invaziv zararkunandalardir [4].

Cho'l sharoitida muhim turlarning geografik tarqalishi va biologiyasini keng qamrovli yoritish hasharotlarning faunadagi o'rni va ahamiyatini izohlash imkonini beradi.

Shundan kelib chiqib, mahalliy shart-sharoitlarga bog'liq ravishda adventiv turlarning Markaziy Farg'ona hududidagi sabzavot-poliz ekinlarida uchrashi o'rganildi.

**Material va tadqiqot uslublari.** Natijalar 2012–2022-yillarda Farg'ona vodiysi, jumladan, Markaziy Farg'ona sabzavot-poliz ekinlarida olib borilgan kuzatishlarga asoslanildi. Tadqiqotlar davomida umumiyligi entomologik, kuzatish, matematik-statistik uslublardan foydalanildi.

**NATIJALAR VA ULARNING MUHOKAMASI**

Hasharotlarning tarqalishi va migratsiyasi ularning hayotidagi o'ziga xos fe'l-atvor reaksiyasi bo'lib, bu jarayonni atroflicha o'rganish, qonuniyatlarini ochib berish hamda kelgusi yo'naliishlarini bashorat qilish qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishdagi qator masalalar yechimini topish imkonini beradi.

Shu nuqtai nazardan qaralganda, adventiv turlarning Markaziy Farg'ona mintaqasiga kirib kelishi va moslashish xususiyatlarini shartli ravishda 3 ta ekologik guruhga ajratilgan [4].

**Birinchi ekologik guruh** – ozuqa o'simliklariga mukammal moslash-gan, barqaror populyatsiyalarga ega bo'lgan turlar. Bularga *Aphis fabae*, *Aulacorthum solani*, *Trialeurodes vaporariorum*, *Heteracris adpersa*, *Leptinotarsa decemlineata*, *Agriotes sputator*, *Lacanobia oleracea*, *Delia platura* turlari kirib, ular Markaziy Farg'ona mintaqasida areali keng hamda

## BIOLOGIYA

sabzavot-poliz ekinlariga zarar keltirishi jihatidan yetakchilik qiladi. Quyida ayrim turlarning tarqalishiga doir ma'lumotlar ifodalangan.

**Ikkinchchi ekologik guruh** – mintaqaga yangi kirib kelayotgan, ozuqa o'simliklariga oson moslashuvchan hamda qisqa muddatda dominantlikni egallash xususiyatiga ega bo'lgan turlar. Bu guruhga tadqiqot hududida so'nggi uchyillikda paydo bo'lgan *Phthorimaea operculella*, *Tuta absoluta*, *Myiopardalis pardalina* turlarini qayd etish mumkin. Ushbu invaziv turlarning kirib kelishi, ichki migratsiya jarayonlari va zarar keltirish xususiyatlarini keng ko'lamlı tadqiq etish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Chunki o'rganilayotgan hasharotlardan P.operculella va T.absoluta karantin obyekti bo'lib, M.pardalina esa tashqi karantin tur hisoblanadi. U Rossiya, Eron, Pokiston, Afg'oniston, Qozog'iston va boshqa bir qator davlatlarda karantin tur sifatida ro'yxatga olingan.

**Uchinchi ekologik guruh** – tarqalish areali tor, ozuqa o'simliklariga to'liq moslashib ketmagan, populyatsiya dinamikasi tebranib turuvchi va barqarorligi to'liq ta'minlanmagan turlar. Markaziy Farg'ona mintaqasida mazkur guruhga *Acrotylus insubricus insubricus*, *Heteracris adpersa*, *Tetrix bolivari*, *Aphis frangulae beccabungae*, *Forda marginata*, *Trifidaphis phaseoli*, *Eurydema oleracea*, *Anomala errans* va *Lacanobia oleracea* turlarini kiritish mumkin.

Ushbu maqolada uchinchi ekologik guruhga mansub turlar haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Mazkur turlar alloxtonlar sifatida yuzalangan bo'lishi bilan bir qatorda, kuzatuvlar davomida ayrimlari hududda tasodifiy uchratilgan (*F.marginata*, *A.frangulae beccabungae*), boshqalari esa sabzavot-polizda oziqlanishga to'liq o'tmagan (*T.bolivari*, *A.insubricus insubricus*, *A.errans*) yoki birligina hududda (*T.phaseoli*, *E.oleracea*) populyatsiya hosil qilgan turlardir. Xususan, *F.marginata* boshoqdoshlarning ildizida yashirin hayot kechiradi. Oltiariq tumanida Phaseolus aureus o'simligi ildizi va ildiz bo'g'izida uning kichik koloniysi qayd etildi (Jo'rak qishlog'i, 21.09.2014). Shiralar yashirin hayot tarziga ega.

*Aphis frangulae beccabungae* aslida Yevroсиyo boreo-montan, mezo-kserofil kenja turi sanaladi. Yozyovon tumanida *Brassica oleracea* o'simligi-da tirik tug'uvchi urg'ochi shira qayd etildi (20.08.2015, Cho'liguliston). R.X.Kadirbekovning 2013-yilda qayd etishicha, ayni tur Qozog'istonning Janubi-sharqiy hududida Brassicaceae, Lamiaceae, Polygonaceae, Scrophulariaceae oilasiga mansub o'simliklarda yashaydi [9].

*Tetrix bolivari* Mingbulloq tumanining Gulbog' qishlog'idagi kechki pomidor (*S.lycopersicum*) dalasida qayd etildi (21.08.2015). Tetrigidae oilasining 257 ta avlodi mavjud. Xitoy tadqiqotchilarining e'tirof etishicha, oilaning *Tetrix Latreille* avlodi qadimgi turlardan va ekologik valentligi keng bo'lib, turli ozuqa o'simliklariga moslashuvchan hamda hududlarni ishg'ol etishi bilan tabiatda kengayib bormoqda [1].

*Acrotylus insubricus insubricus* kenja turi Yozyovon cho'li (Yangiobod) qovun va tarvuz (*Cucumis melo*, *Citrullus lanatus*) dalalarida aniqlandi (19.08.2015).

*Anomala errans* Rishton, Oltiariq va Yozyovon tumanlarining piyoz va sarimsoq piyoz yetishtirishga ixtisoslashgan hududlarida *Allium cepa*, *A.sativum* va sabzi (*D.carota*) o'simliklarida aniqlandi (30-31.08.2016).

*Trifidaphis phaseoli* Buvayda tumani (Yangiоrg'on qishlog'i, 21.09.2014) hududida ildiz mevali sabzavotlar (*Rhaphanus sativus*, *Brassica rapa*, *Raphanus sativus var. radicula*, *Beta vulgaris*, *Daucus carota*)da, shuningdek ajriqning tuproq osti qismlarida oq rangdagagi vakillari uchratildi. O'zbekiston afidofunasiga doir avvalgi afidologik manbalarda bu tur haqida ma'lumotlar keltirilmagan. Biologiyasi o'rganilmagan. Uning Markaziy Osiyo sharoitida pistada, g'o'za va o'tsimon o'simliklar ildizida oziqlanishi haqida A.K.Mordvilko bayon etgan [10]. Mualliflar tomonidan turning tarqalishiga doir ayrim ma'lumotlar keltirilgan. Xususan, hayot sikli pista bilan bog'langan *T.phaseoli* qayerda pista ekilsa, o'sha yerda paydo bo'ladi va yoz mavsumida atrofdagi boshqa ekinlarga ikkilamchi ozuqa manbai sifatida o'tib yashaydi [10, 12]. Demak, *T.phaseoli* shirasining Farg'ona vodiysi bo'ylab tarqalishi 2005-2007yillardagi Buvayda tumanidagi yirik pista plantatsiyalari barpo etilishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Yashirin hayot tarziga ega bo'lgan tur sanaladi.

*Eurydema oleracea* Oltiariq tumani Qiziltepa qishlog'ida karamdoshlarda (*Brassica oleracea*, *Rhaphanus sativus*, *Brassica rapa*, *Raphanus sativus var. radicula*)da qayd etildi (25.09.2014). Bu turni ham O'zbekistonda tarqalishiga oid ma'lumotlar mavjud emas. Biologiyasi o'rganilmagan. *Eurydema* Laporte avlodi vakillarini krestguldoshlar oilasi o'simliklari gullaridagi

suyuqlik jalb etadi. Gullardan ajralgan fitonsitlar hisobiga bir o'simlikdan boshqasiga ko'chib yuradi [11].

Mazkur bo'limda ta'kidlangan ma'lumotlardan ko'rindiki, migratsiya tarqalish bilan bog'liq har qanday manfaatdor turlarda kuzatiladi. Xususan, kolorado qo'ng'izi (*L.decimlineata*), piyoz pashshasi (*D.platura*) va issiqxona oqqanotining (*T.vaporariorum*)ning Markaziy Farg'ona bo'y lab tarqalishi va doimiy o'troqlashib, o'rnashib qolishi ayni hududdagi qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligiga sezilarli ta'siri ko'rsatdi. Bular o'zlaridan avval kirib kelgan adventiv turlar (*A.fabae*, *A.solani*, *H.adspersa*, *A.sputator*, *Loleracea*)ning ko'payib ketishiga to'sqinlik qila oldi. Shuningdek, sabzavot-polizdagi mahalliy dominantlarning doimiy baqaror bo'lib kelgan populyatsiyalariga ham putur yetkazishga sabab bo'ldi.

A.M.Gilyarov va boshqa mualliflarning ko'rsatishicha, migratsiya ayni hududda mos turlarning ko'payib ketishiga to'sqinlik qiladi. Zero, turlarning har qanday hududlarga o'rnashishi ularni saqlab qolish uchun zarur, chunki biotsenozdagi o'zgarish tufayli muhit sharoitlari o'zgaradi, suksessiya ro'y beradi, turlarning tarqalishi qulayroq joylarga tushish uchun katta imkoniyat yaratadi [6].

Hasharotlarni muhitning xaotik, sutkalik, mavsumiy vayillik o'zgarishlariga adaptatsiyasi shiralar misolida tahlil etilgan [5, 7]. Xulosalar sabzavot-poliz ekinlari hasharotlariga tadqiq etilsa, migratsiya jarayonlarini individning ekologik va fe'l-atvor xususiyatlardan kelib chiqib, yanada kengroq izohlash imkoniyatini paydo bo'ladi.

Hasharotlarning muhit omillariga adaptiv javob reaksiyalari xilma-xil bo'lib, reproduktiv (tirik tug'ish, tuxum qo'yish, g'umbakka ketish) va tonik (muskul tonusining o'zgarishi natijasida hasharot harakatining tezlashishi (qochib ketish, yashirinish, uyaga kirish), sekinlashishi yoki "qotib" qolishi va boshqalar), o'ziga xos va xos bo'Imagan fe'l-atvor, birlamchi (to'dalar yoki koloniyalardagi individlarning tartibli ko'chishi) va ikkilamchi (to'dadan yoki koloniyanadan ajralib chiqib, yana qayta kelib qo'shilishi) reaksiyalar sifatida yuzalanishi mumkin [7]. Pirovard natija – migratsiya va u entomokompleks tarkibi o'zgarishi alohida olingan ekotizimlar ozuqa zanjirining buzilishiga, shuningdek qayta shakllanishiga sabab bo'ladi. Eng muhimmi, bu jarayon turning biogeotsenozdagi statusini o'zgartirib yuboradi.

Bir nechayillar avval respublika hududiga kirib kelgan xavfli zararkunanda hasharotlar lavlagi shirasi (*A.fabae*), kartoshka shirasi (*A.solani*), issiqxona oqqanoti (*T.vaporariorum*), kolorado qo'ng'izi (*L.decimlineata*), piyoz pashshasi (*D.platura*) hamda keyingi beshyillikda jadal tarqalib borayotgan kartoshka kuyasi (*P.operculella*), pomidor kuyasi (*T.absoluta*) va qovun pashshasi (*M.pardalina*) ayni holatga sabab bo'lgan turlar sirasiga kiradi. O'tgan davr mobaynida bu zararkunandalar ekotizimdagagi tegishli ozuqa zanjiriga qo'shilib, agrotsenozdagi iqtisodiy xavfi yuqori turlar qatoridan o'rinni oldi. Shu asosda ularning keng tarqalib borishi va yangi ekologik tokchalarni egallashi ro'y berdi.

2017-yilda Markaziy Farg'ona cho'llaridagi (Yozyovon, Mingbulloq) poliz agrotsenozlarida qo'llanilgan kompleks kurash choralar qovun pashshasi miqdor zichligini kamaytirsa-da, lekin uning rivojlanish sur'atini hamda tarqalib borishini to'xtatish yoki boshqarish imkoniyatini bermadi.

Ma'lumki, migratsiya hasharotlar hayot sikli va individual rivojlanishida yuz beradigan muhim hodisa sifatida qaraladi [2]. Bunda turlar tarqalish areali kengayib, yangi yashash makonlarini egallab boradi. Chunki bu yerda tabiiy tanlanish jarayonining o'zi ham migratsiyaga olib boruvchi asosiy kuch bo'lib xizmat qiladi.

Zero, Ch.Darvinnin evolyutsion nazariyasiga binoan, har bir tur yer yuzasining muayyan bir qismida paydo bo'ladi hamda uning birlamchi areali kichik yoki katta bo'lishi mumkin va vaqt o'tishi bilan u kengayadi. Bunday kengayish organizmlarning yangi joyga o'tishi bilan sodir bo'ladi [3].

Keyingi yillar mobaynida adventivlarning Markaziy Farg'ona bo'y lab jadal tarqalib borishiga doir yig'ilgan ma'lumotlar bu zararkunandalarning areallari kengayib borishida inson, shamollar, harorat va ozuqa manbai muhim omillar sifatida ta'sir etib turganligini ko'rsatmoqda.

**Antropogen omillar.** Inson ko'pchilik hollarda turlarni ongli yoki ongsiz ravishda bir hududdan ikkinchisiga o'tkazadi va dastlab yaxlit bo'lgan tur arealini uzilgan holatga keltiruvchi asosiy omilga aylanadi [3].

## BIOLOGIYA

Ko'pchilik mayda organizmlar qatori hasharotlarning Markaziy Farg'ona bo'y lab tarqalib borishida ham shamol yo'nali shining ta'siri yuqori sanaladi [8].

Hasharotlarning migratsiyasi bevosita haroratga bog'liqdir.

Hasharotlarning Markaziy Farg'ona bo'y lab jadal tarqalishiga ta'sir etgan omillar qatorida ozuqa o'simligining uzuksizligi muhim o'rinn egallaydi. Bu jarayonni bir necha yo'nali shlarda talqin etish mumkin.

### XULOSA

Umuman olganda, Markaziy Farg'ona sabzavot-poliz agrobiotsenozlari entomofaunasi turlarga boy bo'lib, 18 turga mansub adventivlar doimiy turlarga aylangan.

O'tkazilgan tadqiqotlarning ko'rsatishicha, hasharotlar agrobiotsenozlarga quyidagi uch ekologik yo'nali shda ro'y beradi. Jumladan, mintaqada doimiy mavjud bo'lgan va barqaror populyatsiyalarga ega bo'lgan turlar, mintaqaga yangi kirib kelayotgan turlar hamda tasodifiy uchrovchi turlar.

Keyingi yillar mobaynida adventivlarning Markaziy Farg'ona bo'y lab jadal tarqalib borishiga doir yig'ilgan ma'lumotlar bu zararkunandalarning areallari kengayib borishida inson, shamollar, harorat va ozuqa manbai muhim omillar sifatida ta'sir etib turganligini ko'rsatmoqda.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Deng Wei-an, Zheng Zhe-min, Wei Shi-zhen. A New Species of the Genus *Tetrix* Latreille and A Newly Reported Male of *Bolivaritettix luochengensis* Deng, Zheng et Wei, 2006 (Orthoptera: Tetrigoidea) //Zoological Research. 2008, Aug. 29(4), 455-458.
2. Johnson C.G. Migration and dispersal of insects by flight. Methuen and Co Lmt., London, 1969. – 763 p.
3. Xolboyev F., Azimov D., Shernazarov E. Zoogeografiya. –Toshkent. 2018. – 216 b.
4. Zokirov I.I. Markaziy Farg'onaning sabzavot-poliz ekinlari hasharotlari faunasini va ekologiyasi: Biol. fan. dokt. (DSc) ...diss. avtoref. – Toshkent, 2019. - 59 b.
5. Ахмедов М.Х. Тли - афидиды (Homoptera, Aphidinea, Aphididae) аридно-горных зон Средней Азии (экология, фауногенез, таксономия): Дисс. ... докт. биол. наук. –Ташкент, 1995. - 202 с.
6. Гильяров А.М. Популяционная экология. –М.: Изд-во МГУ, 1990. -191 с.
7. Зокиров И.И. Ўзбекистон ляҳнинга (Homoptera, Lachninae) шираплари (ҳаёт цикли, этологияси, газлар алмашинуви): Биол. фан. номз. ...дисс. –Тошкент, 2009. - 120 б.
8. Зокиров И.И., Маърупов А., Султонов Д., Набижонова М. Пўстлоқўрлар (Scolitidea) ҳаёт тарзига шамол омилининг таъсири // Минтақамиздаги экологик муаммолар ва уларнинг ёчими: илмий-амалий анжуман материаллари. –Фарғона, 2012. –Б. 97-98.
9. Кадырбеков Р.Х. К фауне тлей (Homoptera, Aphididae) гор Согеты (Юго-Восточный Казахстан) // Selevinia: Зоологический ежегодник Казахстана и Центральной Азии. Т. 21. –Алма-ата, 2013. -С. 75-81.
10. Мордвилько А.К. Кормовые растения тлей СССР и сопредельных стран / Прикладная энтомология: Сб. науч. тр. –Л., 1929. Вып.1. Т. 14. - 95 с.
11. Шапиро И.Д. Распространение главнейших видов крестоцветных клопов рода *Eurydema* Lap., их вредоносность и меры борьбы с ними // Сб. работ Инст. прикладной зоологии и фитопатологии. –М.-Л.: Сельхозгиз. Вып. 1, 1951. –С. 3-13.
12. Яркулов Ф.Я. Фауна корневых тлей, вредителей растений и кормового запаса для полезных энтомофагов// Дальневосточный аграрный вестник. 2018. -№4(48). –С. 147-160.